

**QASHQADARYO VILOYATI STATISTIKA  
BOSHQARMASI**




**Qashqadaryo viloyatida  
kichik tadbirkorlik  
2022- yil yanvar-iyun**


# Qashqadaryo viloyatida kichik tadbirkorlik




yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining YAHMdagi ulushi, % da



2020- yil



2021- yil




2022- yil

2022- yilning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlarining YAHM dagi ulushi **65,5 %** ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har **1000** aholiga **10,0** birlikni tashkil qildi.

2022- yilning yanvar-iyunida **5057** ta yangi kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan **77,8 %** ni tashkil etdi.

**2022- yilning yanvar-iyun oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da**



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p kichik korxonalar va mikrofirmalar savdoda 1831 ta, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 1222 ta, sanoatda 957 ta, yashash va ovqatlanishda 340 ta, qurilishda 158 ta tashkil etilgan.

# Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari



2022- yilning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da

Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi

98,7



Sanoat

23,9



Qurilish

80,6



Investitsiya

32,6



Savdo

83,1



Xizmatlar

68,1



Eksport

32,0



Import

49,0



Faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni

34527




Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni

5057

2022- yilning yanvar-iyunida faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar, birlikda

yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlikning asosiy ko'rsatkichlari, % da



■ 2021- y. ■ 2022- y.

■ (+;-)

# Faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar



2022-yil 1-iyul holatida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar, % da

Savdo

33,2 %



Sanoat

15,0 %



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi

21,4 %



Qurilish

9,8 %



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar

5,7 %



Tashish va saqlash

2,9 %



Axborot va aloqa

1,3 %




Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish

2,0 %




Boshqa faoliyat turlari

8,7 %



1-iyul holatida faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni, birlikda

Hududlar bo'yicha 1-iyul holatida faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni, birlikda



■ 2021-y. ■ 2022-y.

■ (+;-)

# Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar




## Hududlar bo'yicha yanvar-iyun oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar, birlikda



## 2022- yil yanvar- iyun oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha ulushi, % da


2022- yilning yanvar-iyun oylarida hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Qarshi shahri – 13,3 %, Koson tumani – 7,6 %, Chiroqchi tumani – 7,6 %, Dehqonobod tumani – 6,9 %, Yakkabog' tumani – 6,8 %, Qarshi tumani - 6,6 % hissalariga to'g'ri keldi.



# Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar



yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar, birlikda



Ma'lumot uchun: 2022- yil yanvar- iyunida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning eng ko'p salmog'i, birlikda:


Savdoda  
1831 ta

Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida  
1222 ta

Sanoatda  
957 ta

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar  
340 ta

Yangi tashkil etilgan korxonalar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan shahar va tumanlar, birlikda



# Kichik tadbirkorlik subyektlari faoliyati haqida



2022- yil 1-iyul holatida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har 1000 aholiga nisbatan 10,0 birlikni tashkil etdi.



Qashqadaryo viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda), 1-iyul holatiga ko'ra\*


2020- y. 6,8

2021- y. 9,1

2022- y. 10,0

2022- yilning yanvar-iyunida hududlar bo'yicha faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda)\*

2022- yilning 1- iyul holatida kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har 1000 aholiga hududlar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Qarshi shahrida 22,7 birlik, Shahrisabz shahrida 12,9 birlik, Muborak tumanida 12,5 birlik, Mirishkor tumanida 11,2 birlik, Dehqonobod tumanida 10,2 birlikni tashkil etgan.



\* Kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarini qo'shgan holda)

# Kichik tadbirkorlik subyektlari faoliyati haqida



2022- yilning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har 1000 aholiga tuman va shaharlar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Qarshi shahrida 22,7 birlik, Shahrisabz shahrida 12,9 birlik, Muborak tumanida 12,5 birlik, Mirishkor tumanida 11,2 birlik, Dehqonobod tumanida 10,2 birlik, Qarshi tumanida 9,5 birlik, Nishon tumanida 9,5, Koson tumanida 9,4 birlikni tashkil etdi.


Qashqadaryo viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda), 2022- yil 1-iyul holatiga ko'ra\*

**Eng yuqori ko'rsatkich**  
Qarshi shahrida 22,7 birlik.

**O'rtacha ko'rsatkich**  
Nishon tumani- 9,5 birlik.

**Past ko'rsatkich**  
Shahrisabz tumani - 6,8 birlik.

2022- yilning yanvar-iyunida har 1000 aholiga to'g'ri keladigan tadbirkorlik subyektlari sonini eng ko'p tashkil etgan shahar va tumanlar, birlikda \*



\* Kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarini qo'shgan holda)




# Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) eksporti




2022- yil yanvar-iyun oylarida kichik biznes subyektlari mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmi 36,0 million AQSH dollarini yoki umumiy eksport hajmining 49,1 % ini tashkil etdi.

## yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining jami eksportdagi ulushi




## 2022- yilning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jami eksportdagi ulushi, % da



2022- yil yanvar-iyun oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Dehqonobod tumanida – 100,0 %, Kitob tumanida – 99,8 %, Nishon tumanida – 99,2 %, ni eng past ko'rsatkich Qarshi tumanida – 3,1 %, Mirishkor tumanida 4,0 % ni tashkil etdi.

# Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importi




yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining jami importdagi ulushi

2022- yil yanvar-iyun oylarida kichik biznes subyektlari mahsulot (ishlar va xizmatlar) importining hajmi **66,3** million AQSH dollarini yoki umumiy importning **49,0** % ini tashkil etdi.



## 2022- yilning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importdagi ulushi, % da

2022- yil yanvar-iyun oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jamiga nisbatan eng yuqori ulushi Koson tumanida – 90,9 %, Muborak tumanida - 82,4 %, Qarshi tumanida – 83,5 %, Chiroqchi tumanida – 74,4 %, Qarshi shahrida – 63,1 %, Yakkabog' tumanida – 60,1 % ni tashkil etdi. Eng past ko'rsatkich Kasbi tumanida – 1,8 % ni tashkil etdi.




# Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoatdagi faoliyati




## 2022- yilning yanvar-iyunida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi

2022- yil yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 2424,4 milliard so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.



Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Qarshi shahri (483,0 mlrd. so'm), Kasbi (235,5 mlrd. so'm), Qamashi (209,8 mlrd. so'm), Koson (198,9 mlrd. so'm) va Qarshi (189,9 mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi. Dehqonobod tumanida (50,2 mlrd. so'm) sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi eng past bo'lib qolmoqda.

# Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoatdagi faoliyati



yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoatdagi ulushi



2022- yil yanvar-iyun oylarida sanoat ishlab chiqarishining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **23,9 %** ni tashkil etdi.


## 2022- yil yanvar-iyun holatiga hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi ulushi, % da



Hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi eng yuqori ulushini Kitob tumani (88,9 %), Chiroqchi tumani (83,1 %), Shahrisabz shahri (77,9 %), Qamashi tumani (67,5 %), Shahrisabz tumani (49,0 %), Koson tumani (40,4 %), Qarshi shahri (32,8 %), Mirishkor tumani (29,6 %), Yakkabog' tumanida (26,2 %) ni tashkil etdi.

G'uzor tumanida (3,9 %) kichik tadbirkorlikning ulushi eng past bo'lib qolmoqda.

# Kichik tadbirkorlik subyektlarining savdodagi faoliyati



yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining savdodagi ulushi


2022- yil yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi **7433,1** mlrd. soʻmni yoki umumiy chakana savdo tovar aylanmasining **83,1** % ini tashkil etib, oʻsish surʻati 2021- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan **105,3** % ni tashkil qildi.

## 2022- yilning yanvar- iyunida hududlar boʻyicha kichik tadbirkorlik (biznes)da chakana savdo tovar aylanmasi hajmi va oʻsish surʻati

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng koʻp chakana savdo tovar aylanmasi hajmi Qarshi shahri (1414,7 mlrd. soʻm), Chiroqchi (959,6 mlrd. soʻm), Shahrisabz shahri (732,6 mlrd. soʻm), Koson (723,8 mlrd. soʻm), Kitob (485,4 mlrd. soʻm) va Qamashi (429,7 mlrd. soʻm) tumanlari hissasiga toʻgʻri keldi.



# Kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilishdagi faoliyati




2022- yil yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmi **2785,0** milliard soʻmni yoki qurilish ishlari umumiy hajmining **80,6** % ini tashkil etdi. Oʻsish surʻati 2021- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan **108,1** % ni tashkil qildi.



yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilishdagi ulushi

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng koʻp bajarilgan qurilish ishlari hajmi Qarshi shahri (603,1 mlrd. soʻm), Gʻuzor (274,5 mlrd. soʻm), Qarshi (261,3 mlrd. soʻm), Kitob (247,3 mlrd. soʻm), Koson (216,3 mlrd. soʻm), Chiroqchi (197,7 mlrd. soʻm), Yakkabogʻ (138,1 mlrd. soʻm), Kasbi (128,0 mlrd. soʻm) hamda Muborak tumanida (123,8 mlrd. soʻm) qayd etildi.

2022- yilning yanvar- iyunida hududlar boʻyicha kichik tadbirkorlik (biznes)da bajarilgan qurilish ishlari hajmi va oʻsish surʻati




■ hajm, mlrd. soʻm

● oʻsish sur'ati, %

# Kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmatlar sohasidagi faoliyati




yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining jami xizmatlardagi ulushi




2022- yil yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan **4973,0** mlrd. soʻmlik xizmatlar koʻrsatildi yoki koʻrsatilgan xizmatlar umumiy hajmining **68,1** % ini tashkil qildi va oʻsish surʻati 2021- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan **114,8** % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng koʻp xizmatlar hajmi Qarshi shahri (935,1 mlrd. soʻm), Kitob (422,2 mlrd. soʻm), Koson (413,4 mlrd. soʻm), Qamashi (372,5 mlrd. soʻm), Qarshi (347,0 mlrd. soʻm) va Yakkabogʻ (300,9 mlrd. soʻm) va tumanlari hissasiga toʻgʻri keldi.


2022- yilning yanvar- iyunida hududlar boʻyicha kichik tadbirkorlik (biznes)da xizmatlar sohasi hajmi va oʻsish surʻati




2022- yilning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlikning ulushi, % da:




Yuk tashishda



Yuk aylanmasida



Yo'lovchi tashishda



Yo'lovchi aylanmasida

2022- yil yanvar- iyun oylarida avtomobil transportida yuk tashishning umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi 86,9 % ni tashkil etdi. 2021- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan o'sish sur'ati 103,9 % ni tashkil qildi.

2022- yil yanvar- iyun oylarida, avtomobil transportida yuk aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi 85,8 % ni tashkil etgan bo'lib, 2021- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan o'sish sur'ati 110,5 % ni tashkil qildi.

2022- yil yanvar- iyun oylarida, avtomobil transportida yo'lovchi tashish xizmatlarining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi 85,1 % ni tashkil etib, 2021- yil yanvar- mart oylariga nisbatan o'sish sur'ati 102,3 % ni tashkil qildi.

2022- yil yanvar- iyun oylarida, avtomobil transporti yo'lovchi aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi 96,7 % ni tashkil etib, 2021- yil yanvar- mart oylariga nisbatan o'sish sur'ati 108,5 % ni tashkil qildi.



# Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari




2022- yil II- chorak yakunlariga ko'ra, kichik korxonalar va mikrofirmalar o'rtasida tanlanma kuzatuvlar o'tkazildi.

Ushbu so'rovnoma da **1220** ta kichik korxonalar va mikrofirmalar ishtirok etdi. Ularning 707 (58,0 %) tasi iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholadi. 404 (33,1 %) ta subyektlar iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholadi. Qolgan 109 (8,9 %) ta subyektlar iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning taqsimlanishi (ulushi) qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 10,2 % (124 ta), sanoatda – 13,3 % (162 ta), qurilishda – 10,9 % (133 ta), savdoda – 38,8 % (474 ta), xizmatlar sohasida – 26,8 % (327 ta) ni tashkil etdi.

## 2022- yil II- chorak bo'yicha tanlanma kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi, % da




- Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi
- Sanoat
- Qurilish
- Savdo
- Xizmatlar

# Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari



2022-yil II-chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi, birlikda



Shahar va tumanlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalar Qarshi shahri (265 ta), Kitob (105 ta), Chiroqchi (104 ta), Shahrisabz shahri (92 ta) va Qarshi (91 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.


2022-yil II-chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi, % da



# Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari




## 2022- yilning II- choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning joriy davrda iqtisodiy vaziyatini baholash, % da



Kichik korxonalar va mikrofirmalarning 2022- yilning II- choragida o'tkazilgan kuzatuv natijalariga ko'ra joriy davrda iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalar iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi savdoda – 64,1 % ni, xizmatlar sohasida 56,9 % ni, sanoatda 54,9 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalar eng ko'p ulushi qurilish sohasida 39,8 % ni, va sanoatda – 37,7 % ni tashkil etdi.

## 2022- yilning II- choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatini baholash, % da



2022- yilning II- choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalar iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi savdoda 73,4 % ni, xizmatlar sohasida 72,8 % ni, Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 66,9 % ni, tashkil etdi.

Shuningdek, yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalar eng ko'p ulushi sanoatda 30,9 % ni, qurilishda 31,9 % ni, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 24,2 % ni, tashkil etdi.



# Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari




2022-yilning II-choragida biznesga ishonch muhitini baholash, % da

	O'tgan yilning shu davriga nisbatan joriy davrdagi o'zgarishlar		
	Ko'payish (yaxshilanish*)	o'zgarishsiz	Kamayish (yomonlashish*)
<b>Korxonaning umumiy aylanmasi</b>	<b>65,6</b>	<b>29,4</b>	<b>5,0</b>
<b>Band bo'lganlar soni</b>	<b>53,5</b>	<b>41,6</b>	<b>4,8</b>
<b>Sotilgan mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) uchun narx</b>	<b>62,5</b>	<b>33,6</b>	<b>3,9</b>
<b>Moliyaviy mablag'lar: o'z, kredit va qarz mablag'lari</b>	<b>58,1</b>	<b>35,6</b>	<b>6,4</b>
<b>Raqobat muhiti*</b>	<b>67,7</b>	<b>28,8</b>	<b>3,4</b>
	Yaqin 3 oyda o'zgarishlar istiqboli		
	Ko'payish (yaxshilanish*)	o'zgarishsiz	kamayish (yomonlashish*)
<b>Korxonaning umumiy aylanmasi</b>	<b>73,0</b>	<b>23,4</b>	<b>3,7</b>
<b>Band bo'lganlar soni</b>	<b>65,5</b>	<b>30,5</b>	<b>4,0</b>
<b>Sotilgan mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) uchun narx</b>	<b>68,8</b>	<b>27,7</b>	<b>3,5</b>
<b>Moliyaviy mablag'lar: o'z, kredit va qarz mablag'lari</b>	<b>64,5</b>	<b>29,7</b>	<b>5,8</b>
<b>Raqobat muhiti*</b>	<b>73,9</b>	<b>23,1</b>	<b>3,0</b>


# Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari



2022- yilning II- choragida biznesga ishonch muhitini baholash, o'tgan yilning shu davriga nisbatan joriy davrdagi o'zgarishlar, % da



2022- yilning II- choragida biznesga ishonch muhitini baholash, yaqin 3 oyda o'zgarishlar istiqboli, % da



Ishbilarmonlik muhiti kuzatuvlari,  
tadbirkorlikni rivojlantirish statistikasi  
bo'limi

Tel: (75) 221-32-44